

INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA BOYLIK KONSEPTINING LINGVOKULTUROLOGIK XUSUSIYATLARI

Maxamadiyeva Guzal Zokir qizi
denisovaregina19@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17346354>

Annotatsiya: Ushbu tezisda “boylik” konsepti va uni ifoda etgan leksik birliklar ingliz va o'zbek tillari misolida ko'rib chiqamiz. Ma'lumki, kontseptni o'rganish uning asosini ajratib ko'rsatish bilan boshlanadi va kontseptning asosi uni nomlovchi va kalit so'zning (leksemaning) semantikasini aks ettiruvchi barcha unsurlarda ustun turadi. Natijada boylik konseptining ijtimoiy, ma'naviy va iqtisodiy qirralari ochib beriladi.

Kalit so'zlar: boylik, konsept, lingvokulturologiya, tahlil, milliy tafakkur.

Kirish. Har bir til xalq dunyoqarashining oynasi bo'lib, unda moddiy va ma'naviy qadriyatlar tilda aks etadi. “Boylik” konsepti o'zbek va ingliz xalqlarining hayotiy falsafasida turlicha talqin etiladi. Boylik – ko'pchilik nazdida moddiy iqtisodiy holatni anglatuvchi termin. U inson kundalik ehtiyojlarini qondirishi va barcha jabhada to'kin-sochin hayot tarziga erishishi uchun asosiy omil sifatida namoyon bo'ladi. Biroq, bu leksemaning iqtisodiyot bilan bog'liq yagona ma'nosi bilan cheklanib qolib, uning inson hayotidagi asl o'rni, asl mazmun-mohiyatiga ma'naviy yohud hissiy jihatdan yondashishni va uning falsafiy tushuncha sifatida qanday namoyon bo'lishini tahlil etmay turib, uni to'laqonli madaniy unsur sifatida ochib berib bo'lmaydi.

Asosiy qism. Ingliz tilidagi “wealth”, “fortune”, “prosperity” so'zlari iqtisodiy muvaffaqiyat, shaxsiy yutuq va imkoniyat bilan bog'liq. O'zbek tilidagi “boylik”, “ro'zg'or”, “mol-dunyo” esa ko'proq ijtimoiy mas'uliyat va mehnatsevarlik timsolidir. Bundan tashqari, “mo'l-ko'llik”, “baxt-quvonch” “boy holat”, “moddiy boyliklar majmuasi” va boshqa ma'nolari ham ko'zga tashlanadi. Maqollar (“Boylik – dunyo sinovi”, “Fortune favors the brave”) orqali har ikki xalqning boylikka munosabatidagi madaniy farqlar ko'rinadi. Ingliz tili pragmatik yo'nalishga ega bo'lsa, o'zbek tili axloqiy qadriyatlarga urg'u beradi. Bu borada ikki til va madaniyatning umumiy jihatlari ham borligini alohida ta'kidlash joiz. Jumladan, “Good health is above wealth” yoki “Wealth is nothing without health” maqollarining aynan o'zbek maqollar dunyosida ham uchrashini (“Sog'lik boylikdan ustun” yoki, “Tani sog'lik – tuman boylik”) bu ikki madaniyatning umumiy qarashlarni ifoda etadi.

Xulosa. Tillararo qiyosiy tahlil “boylik” konseptining milliy tafakkurda turlicha talqin qilinishini ko'rsatadi. Bu esa lingvokulturologik yondashuv orqali xalqlarning madaniy mentalitetini o'rganish imkonini beradi. “Boylik” konsepti moddiy barqarorlik, o'ziga to'qlik, qulaylik, farovonlik, rizq-nasiba, tirikchilik, tinchlik-totuvlik, do'stlik va qardoshlik munosabatlari, mehr-oqibat va shuningdek, iymon butligi ma'nolari bilan birlashadi. Ushbu tushunchalar eng ulug', eng aziz xalqimizning umumbashariy qadriyat va hayotiy qarashlarini o'zida mujassam etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Karimov, N. (2021). Til va madaniyat: lingvokulturologik qarashlar. Toshkent: Fan nashriyoti.
2. Nurmatova, M. (2020). O'zbek tilida konseptual tahlilning asoslari. Toshkent: O'zbekiston Milliy universiteti nashriyoti.

3. Maslova, V. A. (2001). Лингвокультурология. Moskva: Akademiya.
4. Lakoff, G., & Johnson, M. (2003). Metaphors We Live By. Chicago: University of Chicago Press.
5. Oxford English Dictionary. (2024). Wealth – definition, usage and cultural notes.